IJTIMOIY TARMOQLARNING INGLIZ TILINI O`RGANISHDAGI O`RNI VA SAMARALARI

Madina Panjiyeva

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot yo`nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: **Samadova Visola Baxtiyor qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Amaliy ingliz tili kafedrasi katta o`qituvchisi

visolasamadova5@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ularning jadal rivoji barcha sohalar kabi til o`rganuvchilar uchun ham qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o`rganishga ta`siri, ulardan samarali foydalanish yo`llari, shuningdek, ularni noto`g`ri qo`llash holatlari yoritiladi va mavzuga doir fikrlar tahlil qilinadi. Tahlil natijasida ijtimoiy tarmoqlar til o`rganishda faqat qo`shimcha vosita bo`la olishi, uning samaradorligi esa foydalanuvchining ongli yondashuviga bog`liqligi ko`rsatib beriladi.

**Kalit so`zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, ingliz tili, til o`rganish, autentik material, raqamli savodxonlik.

Kirish: Hozirgi raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlarda faol bo`lish zamon talabiga aylandi. Bu esa barcha uchun yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o`rganishda bu imkoniyatlar beqiyos. Ba`zi tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o`rganishda ajoyib imkoniyatlar manbai sifatida ta`riflanadi [1]. Tadqiqotlarda ham qisqa videolar norasmiy til o`rganish resursi sifatida tobora e`tirof etilayotgani qayd etiladi [2].

Biroq tarmoqlardagi kontent juda ko`p bo`lgani bilan uning sifati va o`rganuvchiga foydasi turlicha. Shu sababli bu imkoniyatlardan qaysi maqsadda va qanday foydalanish kerakligi masalasi dolzarb bo`lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o`rganishdagi o`rni va samaralarini aniqlash, ulardan to`g`ri foydalanish yo`llarini ko`rsatishdan iborat. Maqolada adabiyotlar tahlili hamda muallifning kuzatishlaridan foydalanildi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o`rganishdagi imkoniyatlari:

Instagram va TikTok'dagi qisqa video kontentlar til o`rganishning qiziqarli usuli hisoblanadi. Bunday videolarda odatda bitta so`z, ibora yoki grammatik qoida qisqa va sodda shaklda tushuntiriladi, shuning uchun foydalanuvchi ko`p vaqt sarflamay, kunlik kichik bilimlarni to`plab boradi. Masalan, Instagram'da Sirojiddin bro va Jony kabi akkaunt egalarining kontentlari til o`rganuvchilar orasida keng tarqalgan, TikTok'da ham yangi so`z va iboralarni qisqa tushuntiradigan videolar ko`p uchraydi. Kuzatishlarimizga ko`ra, bunday videolar kundalik hayotda kerak bo`ladigan so`z va iboralarni tez va sodda shaklda o`rganishga yordam beradi. Shuningdek, ularda ingliz tilidagi jonli nutq, kundalik iboralar va talaffuz namunalari ko`rsatilgani sababli o`rganuvchi tilni darslikdagidan ko`ra tabiiyroq muhitda eshitadi. Biroq bunday kontent odatda mavzuni chuqur yoritmaydi, shu bois uni asosiy dars o`rnida emas, balki qo`shimcha vosita sifatida ishlatish maqsadga muvofiq.

YouTube'da esa uzun videolar orqali turli mavzularda keng qamrovli ma`lumot olish mumkin. Bu platformada deyarli har bir mavzu bo`yicha kerakli videoni topish imkoni bor. Videoni ko`rmasdan, faqat ovozini eshitishning o`zi ham tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. YouTube'da ham “daily routine” (kundalik hayot) turidagi videolar, shuningdek, ko`plab amerikaliklar yuritadigan kanallar mavjud. Bunday videolarda ona tilida so`zlashuvchilarning tabiiy nutqini eshitish va kundalik hayotda ishlatiladigan so`z va iboralarni o`rganish mumkin. Tadqiqotlarda YouTube orqali ingliz tilini o`rganishning afzalliklari bilan bir qatorda cheklovlari ham tahlil qilinadi [3].

Telegram esa turli kanallar, guruhlar va chatlarni o`z ichiga oladi. Bularning barchasi uzoqdagi insonlar, jumladan, ona tilida so`zlashuvchilar (native speakers) bilan real vaqtda suhbatlashish imkonini beradi. Bundan tashqari, Telegram orqali o`tkaziladigan onlayn darslar ayniqsa oilali yoki ishlaydigan insonlar uchun qulay: ular uydan chiqmagan holda, o`zlariga mos vaqtda darslarda qatnasha oladi va bu ularning ish yoki o`qishiga xalaqit bermaydi. Bugungi kunda Telegram bilim olishning katta bazasiga aylangan: undan istalgan fan va soha bo`yicha o`qituvchilar o`tadigan sifatli darslarni topish mumkin. Telegram'da Abror Rahmatullayev va Mohinur Zafarjonova kabi o`qituvchilarning video darslari juda mashhur. Bu darslar tizimli bo`lgani uchun o`rganuvchi mavzuni bosqichma-bosqich o`zlashtirish imkoniga ega.

Yuqoridagi kuzatishlarni umumlashtirib, platformalarning imkoniyatlari va cheklovlarini 1-jadvalda ko`rsatish mumkin.

1-jadval. Platformalarning ingliz tilini o`rganishdagi imkoniyatlari (muallif kuzatishlari asosida)

Platforma	**Kontent turi**	**Rivojlanadigan ko`nikma**	**Cheklov**
Instagram va TikTok	Qisqa videolar, kundalik so`z va iboralar	Lug`at, kundalik nutq iboralari	Mavzuni chuqur yoritmaydi
YouTube	Uzun videolar, video darslar, ona tilida so`zlashuvchilar kanallari	Tinglab tushunish, tabiiy nutqni eshitish	Chalg`ituvchi kontent ko`p, sifati turlicha

Platforma	Kontent turi	Rivojlanadigan ko`nikma	Cheklov
Telegram	O`quv kanallari, guruhlar, onlayn darslar	Tizimli bilim, ona tilida so`zlashuvchilar bilan muloqot	Foydalanuvchining intizomi va o`zini tartibga solishini talab qiladi

Noto`g`ri foydalanish holatlari va samarali foydalanish yo`llari:

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan noto`g`ri foydalanish til o`rganish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Eng avvalo, tarmoqlarda chalg`ituvchi kontent ko`p bo`lgani uchun o`rganuvchi dars ko`rish o`rniga vaqtini behuda sarflab qo`yishi mumkin. Bundan tashqari, tarmoqlardagi ma`lumotlarning hammasi ham ishonchli emas: ba`zi videolarda talaffuz va grammatik xatolar uchraydi, so`zlashuv iboralari yoki slenglar esa rasmiy nutqda ham qo`llanishi mumkindek ko`rsatiladi. Tadqiqotlarda ham foydalanuvchilar yaratgan kontent sifati har doim ishonchli emasligi va o`quvchilar chalg`ituvchi omillarga duch kelishi mumkinligi qayd etiladi [4]. Tizimsiz, tasodifiy kontent ko`rib o`rganish esa bilimning bo`laklarga bo`linib qolishiga olib keladi, chunki bunday kontent grammatikani ham, lug`atni ham izchil o`rgatmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish uchun avvalo aniq maqsad qo`yish, kuniga muayyan vaqt ajratish, ishonchli o`qituvchi va kanallarni tanlash hamda o`rganilgan narsalarni muntazam takrorlash lozim. Ingliz tilini o`rganish uchun yana ko`plab sayt va ilovalar mavjud, ularning ko`pchiligidan bepul foydalanish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda har bir platforma ingliz tilini o`rganishda o`ziga xos vazifani bajaradi: YouTube tinglab tushunish va tabiiy nutqni eshitishda, Instagram va TikTok yangi so`z va iboralarni qisqa vaqtda o`rganishda, Telegram esa

tizimli darslar va ona tilida so`zlashuvchilar bilan muloqotda foydalidir. Shu bilan birga, ularda yozish va grammatikani chuqur o`rganish imkoniyati cheklangan, shuning uchun ijtimoiy tarmoqlar tizimli ta`limni to`liq almashtira olmaydi va qo`shimcha vosita sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiq. Samaradorlik esa foydalanuvchining aniq maqsadi, vaqtni rejalashtirishi va ishonchli manbalarni tanlay olishiga bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ingliz tilini o`rganishda ijtimoiy tarmoqlarning o`rni va kutilmagan afzalliklari // Multidisciplinary Journal: Fundamental Research Scientific Journal. 2025. 1(5). 154-156-betlar. https://doi.org/10.5281/zenodo.15609027

2. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa til kontenti orqali ingliz tili ko`nikmalarini rivojlantirish (TikTok, YouTube Shorts, Instagram Reels) // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2026. 3(1). 81-83-betlar. https://doi.org/10.5281/zenodo.18153566

3. Ingliz tilini YouTube orqali o`rganish // Journal of Universal Science Research. 2026. 4(01). 54-58-betlar. https://doi.org/10.5281/zenodo.18317357

4. Hafizov A. A. Ijtimoiy tarmoqlarning autentik til o`rganish vositasi sifatida qo`llanilishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2025. 5(4). 612-616-betlar.